

AHOLINI RO'YXATGA OLISHDA GEOGRAFIK VA DEMOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'RNI

Berdikulova M.T.

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

***Kalit so'zlar:** aholi, aholi ro'yxati, inson salohiyati, iqtisodiyot, demografiya, statistika, etnik tarkib, diniy tarkib, tug'ilish, o'lim, aholi punktlari.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada aholini ro'yxatga olishning tarixiy jihatlari bilan birga ilmiy asoslari ham yoritib berilgan. O'zbekiston hududida olingan aholi ro'yxatlari haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan. Davlat dasturi asosida Respublikada o'tkazilishi rejalashtirilgan aholi ro'yxati to'g'risida bayon qilingan.*

THE ROLE OF GEOGRAPHICAL AND DEMOGRAPHIC INFORMATION IN THE CENSUS

Berdikulova M.T.

Teacher of Karshi State University

Annotation: This article covers the historical aspects of the census as well as its scientific basis. There is scientific information about the population lists obtained in the territory of Uzbekistan. The list of the population planned to be carried out in the Republic on the basis of the state program is stated.

Keywords: population, population list, human potential, economy, demography, statistics, ethnic composition, religious composition, births, deaths, settlements.

Zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy manbalaridan biri – mamlakatning inson salohiyatidir. Inson resurslardan samarali foydalanish uchun aholining joylashuvi, tarkibi, ta'biy ko'payish ko'rsatkichlari, ta'lim darajasi, iqtisodiy faolligi va shu kabi demografik ma'lumotlar zarur bo'ladi. Aholi haqidagi barcha to'liq ma'lumotlar bevosita aholi ro'yxati o'tkazish orqali to'planadi.

Aholi ro`yxatlari – mamlakat yoki muayyan hududda ma'lum vaqt yoki davrda yashayotgan aholining demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarining jarayoni to`plami. Aholi ro`yxatlari ilmiy talablarga hamda amaliyot ehtiyojlariga javob berish, aholi soni, tarkibi va joylashishi to`g`risidagi ma'lumotlarni yig`ish maqsadida o`tkaziladi.

Aholi ro`yxatlarini o`tkazish bo`yicha bir qancha ilmiy tamoyillar mavjud. Ularning ichida jami voqea va hodisalarni qamrab olish tamoyili eng muhimi hisoblanib, ro`yxat o`tkazilayotganda muayyan joydagi jami aholi qamrab olinishi shart. Aholi ro`yxatiga demografiya belgilari (jinsi, yoshi, oilaviy holati), iqtisodiy belgilari (mashg`uloti, iqtisodiy faoliyat sohasi yoki turi), ma'lumoti (savodliligi, maktabga borishi), etnik alomatlarini (millati, tili, ba`zan dini) va hokazo ma'lumotlar olinadi. Ushbu ma'lumotlar vaqt va hudud doirasida taqqoslashga yaroqli bo`lishligi uchun, jami aholiga bir xil mazmundagi savollar taqdim qilinishi kerak, ya`ni mamlakat miqyosida aholi ro`yxatlari yagona dastur asosida o`tkazilishi shart. Bunda BMT tomonidan berilgan tavsiyalarga tayaniladi. Aholiga tegishli ma'lumotlar aniq bo`lishligi uchun ularni har bir kishidan shaxsan olinadi. Ro`yxat odamlarning o`z joyida muqim yashab turgan davrida, ya`ni asosan qishda qisqa muddatda, bir necha kun yoki hafta mobaynida o`tkaziladi, lekin barcha ma'lumotlar kritik (jiddiy) lahzasi (odatda ro`yxatga olishning birinchi kuni) da olinadi, shungacha o`lganlar va tug`ilganlar ko`rsatilmaydi. Javoblar ro`yxat varaqalariga yagona nusxada yoziladi.

Aholi ro`yxati aholi soni va tarkibi haqidagi ma'lumotlarni ma'lum bir sanaga mo`ljallab berishi lozim. Shartni bajarish uchun ro`yxat o`tkazish bo`yicha sana va vaqti aniq ko`rsatilishi kerak. Mazkur vaqt ro`yxatning kritik lahzasi deyiladi. Qadimdan aholini hisobga olishning xilma – xil usullari mavjud bo`lgan. Yunoniston, Bobil (Mesopotamiya), Misr, Rim, Xitoy va Yaponiyada aholi hisobga olinganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Ular asosan fiskal (soliq olish) va harbiy maqsadlarni ko`zlagan holda o`tkazilib, odatda faqat erkaklarni, ya`ni harbiy harakatlarda ishtirok etish hamda soliq to`lash imkoniyati bor shaxslarni qamrab olgan.

Jami aholi soni va tarkibi haqidagi ro'yxat birinchi marta 1790-yilda AQSh da o'tkazilgan. 1801 – yilda Buyuk Britaniya, Fransiya, Daniya va Norvegiyada o'tkazilgan. XIX asrning o'rtalariga kelib Yevropa mamlakatlarida maxsus statistik tashkilotlar barpo qilinganligi aholi ro'yxatlarini sifatli o'tkazishning muhim omili bo'ldi. Dunyo mamlakatlarida 1870 – 79 yillarda 48 ta, 1880 – 89 yillarda 54 ta, 1890 – 99 yillarda 57 ta, XX asrning dastlabki o'n yilligida 74 ta davlatda aholi ro'yxati o'tkazildi. Aholi ro'yxatlari XX asrning boshida yer yuzi jami aholisining 64 foizini qamrab oldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin aholi ro'yxatlari o'tkazish yana ham keng tus oldi. Aholi ro'yxatlari 1945-54 yillarda 168 mamlakatda, 1969 – 74 yillarda 179 mamlakatda o'tkazildi. Hozirgi vaqtda aholi ro'yxatlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida o'tkazilmoqda.

Respublikamizda demografik jarayonlarning holatini o'rganishda mamlakat hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda keltirilishicha, O'zbekistonda 1897, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989 yillarda aholi ro'yxati o'tkazilgan. O'zbekiston hududida dastlabki aholi ro'yxatga olish 1897 yilda o'tkazilgan bo'lib, ushbu ro'yxatga olish tadbiri ma'lumotlari XIX asr oxirida O'zbekistonda mavjud oilalar, aholi soni, aholining yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam bergan. 1897 yilda 3730 ming kishi yashagan bo'lsa, 1926 yilda 4460 ming, 1959 yilda 8261 ming, 1970 yilda 11799 ming, 1979 yilda 15391 mingni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 710-sonli “O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga ilova qilib, “O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartibi to'g'risida”gi 9 bob, 73 bandedan iborat Nizom tasdiqlandi. Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish 2023-yil 1 – 25 noyabr kunlari amalga oshirilishi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi 2022-yil 1-iyunga qadar aholini ro'yxatga olish uchun

zarur bo'lgan miqdorda kartografik materiallar (shahar va qishloq aholi punktlarining sxematik rejalari va xaritalari) bilan ta'minlashi belgilab berilgan.

Nizomning umumiy qoidalariga ko'ra, ro'yxatga olish 2023 yil 1-25 noyabr kunlari o'tkaziladi va ro'yxatga olish boshlanishining aniq payti 2023 yil 1-noyabr soat 00.00 etib belgilanadi. Ro'yxatga olishni o'tkazish davomiyligi 25 kunni tashkil etadi. Respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ishda ro'yxatga olish sanasidan keyin sodir bo'lgan demografik holatlar hisobga olinmaydi. 2023-yil 1-noyabrdan keyin tug'ilgan bolalar uchun ro'yxatga olish hujjatlari to'ldirilmaydi, biroq ushbu sanadan keyin vafot etgan shaxslar uchun to'ldiriladi. Bunda vafot etgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar uning voyaga yetgan, muomala layoqatiga ega oila a'zolari yoki mahalla idorasidagi mavjud ma'lumotlar asosida to'ldiriladi. Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini hisobga olib aholi punktlarida yashovchi aholi sonini ko'rsatgan holda aholi punktlarining to'liq ro'yxati tuzilishini ta'minlash vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimliklariga belgilab berilgan. Ro'yxatga oluvchi xodimlar tomonidan tayyorlangan yig'ma ro'yxatlar natijalari asosida shahar va qishloqlar (shu jumladan, erkaklar va ayollar) bo'yicha dastlabki ma'lumotlar shahar va qishloq aholisiga ajratilgan holda shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar bo'yicha aholini ro'yxatga olishning dastlabki ma'lumotlari 2024-yil 1-martga qadar tayyorlanadi. Aholini ro'yxatga olish natijalarini chop etish Qo'mita va uning hududiy organlari tomonidan 2025-yil 1-dekabrgacha rasmiy bosma nashrlarda, shuningdek, elektron manbalarda, foydalanuvchilarning keng ommasi uchun ommabop nashrlarda, (risolalar, press-revizlar, atlaslar, taqdimot materiallarida va boshqalarda), Qo'mitaning rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali e'lon qilinadi.

Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari "ijtimoiy himoya", "investitsiya", "uy-joy", "sog'liqni saqlash", "madaniyat", "turizm", "ta'lim", "yo'l qurilishi va infratuzilma" kabi manzilli dasturlarning tayyorlanishi va amalga oshirilishida xizmat qiladi. Kelgusida aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga asoslanib, ushbu

dasturlar natijalarini baholash, iqtisodiy prognozlash va demografik siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda rejalashtirilgan aholini ro'yxatga olish ishlari hududlarning geografik va demografik qiyofasi yaratilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1 – том. –Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 566 б.
2. Қашқадарё вилояти географияси. Қарши.; 1994. – 98 б.
3. <https://yuz.uz>
4. <https://lex.uz>